



## MAHALLA TIZIMI FAOLIYATIDA IQTISODIY SAVODXONLIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Aliqulov Ravshan Shodiyor o'g'li**  
Guliston Davlat Universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi  
Telefon raqami: +998949199000

*Annotatsiya.* Bugungi kunda mahalla tizimida aholining iqtisodiy savodxonligi darajasini oshirish global ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri hisoblanib, kredit, soliq, murakkab foizlarni hisoblash va moliyaviy tovar va xizmatlardan foydalanish jarayonida kelgusida uy-xo'jalik moliyasini to'g'ri yuritish, kelgusu daromadlarni to'g'ri taqsimlay olishi uchun kredit va uni qaytarish usullari tushunchasiga ega bo'lishi kerak.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy savodxonlik, kredit, soliq, tadbirkorlik, kreditni so'ndirish, murakkab foiz, moliyaviy bozor.

### Kirish

2020 yilning 27 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida bo'lib o'tgan "Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar" bo'yicha videosektor yig'ilishida "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish degani emas. Buning uchun eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, iqtisodiy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarni o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak" deb ta'kidladilar. [1]

### Tahlil va natijalar

Aholining moliyaviy bilimlarini baholash jarayonida respondentlarga beriladigan savollarda asosan moliyaviy bozor va uning segmentlari, moliyaviy tovar va xizmatlarning xususiyatlari, moliya bozori funktsiyalari va vazifalari, uning amal qilish mexanizmini anglashi, iqtisodiy xulq bilan bog'liq bo'ladi.[2] Bunga echim sifatida axolining moliyaviy savodxonligini oshirish inson moliyaviy extiyoji uchun kredit olish va so'ndirish usullari haqida batafsil malumot beramiz va kredit turlarining ijobiy xamda salbiy tomonlarini izoxlaymiz.

Kreditni so'ndirish usullari - bu siz bankdan kredit olsangiz, albatta u bo'yicha oylik to'lovlarni amalga oshirishingiz zarur bo'ladi.[3] Kredit bo'yicha oylik to'lovlar ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: Bular annuitet yoki differentsial to'lov usullari.

Annuitet to'lov usuli bu - Kreditni so'ndirishning annuitet usuli bu kreditni so'ndirishning shunday usuliki, unda siz bankka kredit bo'yicha to'lovlar grafigiga asosan har oy bir xil miqdordagi summani o'tkazib borishingiz lozim bo'ladi.



Deylik, siz 10 000 000 so'm miqdorida 6 oy muddatga yillik 23% asosida kredit olmoqchisiz.

### 1-jadval

No	To'lov	Asosiy	Qiziqish	Balance qarzdor
1	1780240.71	1588574.05	191666.67	8411425.95
2	1780240.71	1619021.72	161219	6792404.24
3	1780240.71	1650052.97	130187.75	5142351.27
4	1780240.71	1681678.98	98561.73	3460672.29
5	1780240.71	1713911.16	66329.55	1746761.13
6	1780240.71	1746761.13	33479.59	0
	<b>10681444.29</b>	<b>10000000</b>	<b>681444.29</b>	

Kreditni so'ndirishning differentsial usuli bu nima?

Kreditni so'ndirishning differentsial usuli bu kreditni so'ndirishning shunday usuliki, unga ko'ra har oy asosiy qarz bo'yicha bir xil summa to'lab boriladi, foiz to'lovlari esa kredit qoldig'i kamayib borishi bilan birga asta-sekin kamayib boradi.

10 000 000 so'm miqdorida 6 oyga 23% asosida kredit. Kreditni so'ndirishning differentsial usulida oylik to'lovlar miqdori quyidagicha bo'ladi:

### 2-jadval

To'lov	Asosiy	Qiziqish	Balance qarzdor
1858333.33	1666666.67	191666.67	8333333.33
1826388.89	1666666.67	159722.22	6666666.67
1794444.44	1666666.67	127777.78	5000000
1762500	1666666.67	95833.33	3333333.33
1730555.56	1666666.67	63888.89	1666666.67
1698611.11	1666666.67	31944.44	0
<b>10670833.33</b>	<b>10000000</b>	<b>670833.33</b>	

**Ushbu to'lov usullarining afzalliklari va kamchiliklari.** Kreditni so'ndirishning annuitet usuli: + siz har oy qancha miqdorda to'lov amalga oshirishingizni aniq bilasiz. Kredit majburiyati bo'yicha o'z xarajatlaringizni bilgan holda, byudjetingizni yanada aniq rejalashtira olishingiz mumkin.

- birinchi to'lovlar tarkibida foiz to'lovlari katta qismni tashkil etadi.

Kreditni so'ndirishning differentsial usuli:

+muddatning so'nggi oylarida kredit bo'yicha to'lov miqdori kamayib boradi, chunki, asosiy qarz va foiz to'lovlari mos ravishda kamayib boradi.



- kredit bo'yicha to'lovlarning boshida katta moliyaviy bosim.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda sezilarli ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi qaroriga muvofiq, "O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish" loyihasi ijrosiga kirishilgani bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Jahon Banki Guruhi moliyalar va bozorlar bo'yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo'yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha dastur, Savdo-sanoat palatasi va "Norma" professional rivojlanish markazi tomonidan "Tadbirkorlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish" dasturi yo'lga qo'yilgan.[4]

### **Xulosa va takliflar**

Amaliyotda har doim ham aholining oylik daromadlari ularning bir oy davomidagi xarajatlarini to'liq qoplay olmaydi. Ayrim holatlarda aholi qarz olish (bank kreditlari, lombard, yaqinlardan qarz olish va boshqalar) yoki o'z jamg'armalarini ishlatish kabi holatlar uchrab turadi. Bunga taklifim uy xo'jaliklar, oilalar va shaxslarga o'z byudjetlarini shakllantirish, rejalashtirishga oid bilim va ko'nikmalarni muntazam berib borishning universal usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi" gi PQ-4400 sonli qarori, 23.07.2019y.
2. Gulizahro, T. (2023). O'ZBEKISTON AHOLISI SONI VA TURMUSH DARAJASI STATISTIKASI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 131-133.
3. Komiljon, X., Saidaxmad, A., & Gulizahro, T. (2023). O'ZBEKISTONDA ISH BILAN TA'MINLASH VA AHOLI BAND BO'LMAGAN STATISTIK KO'RSATKICHLARI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 128-130.
4. Bobur, A., Abdulla, J., & Gulizahro, T. (2023). AHOLI VA MEHNAT RESURSLARINING O'RTACHA MIQDORLARI KO'RSATKICHLARI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 193-195.
5. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).





6. Abdurahmanova, M., & Rahmanova, A. (2021). КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИДА ПОЛИСЕМИЯ. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
7. Saodat, I. “Ko ‘k” leksemasining etimologik tavsifi. O ‘ZBEKISTON, 75.
8. Tursunaliyeva, A. M., & Azizaxon, R. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 1(2), 117-123.

